



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

**Adhamova Mahliyo**

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlanğich ta'lif yonalishi 1-bosqich talabasi

**Sh. I. Nurmatova**

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lif kafadrasasi matematika fani o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada boshlanğich sinf oquvchilarining bilim va königmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan tanqidiy fikrlash masalalari yoritiladi. Shuningdek matematika faniga oquvchilarni qiziqishlarini oshirish haqida söz boradi.

**KALIT SÖZLAR:** tanqid, tanqiday fikrlash, mantiq, mantiqiy tafakkur, hotira, boshlanğich ta'lif.

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bolib, ta'lif- tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, noan'anaviylikka intilish va oquvchilar bilan ishslashning yangi yonalishlarini ishlab chiqishni taqazo etadi. Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomonidan faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yurish va ochiq izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir. Dunyoning yetakchi ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning intellekti va dunyoqarashini rivojlantirishda integrallashgan interfaol ta'lif texnologiyalari, virtual va eksperimental loyihalarni joriy etish orqali ta'lif oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yølga qoyilmoqda. Bunga yaqqol misol qilib davlatmiz rahbari SH. Mirziyoyevning "Maktabda oqitish metodikasi özgarmasa, ta'lif sifati ham, muhit ham özgarmaydi" – degan fikrlarini olsak tögrı bøladi.

Tanqidiy fikrlash – muhokama qilinayotgan masala boyicha öz pozitsiysini egallash va uni asoslash qobiliyatini, sinchkovlik bilan körib chiqishi va ularning mantigini tahlil qilish qibiliyatini ta'minlaydigan fikrlash, nafaqt axborotni özlashtirish, tushunish va qabul qilish qibiliyati.

Boshlanğich sinf oquvchilarida tanqidiy fikrlash orqali mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, öz góyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, öz- özini anglash, kommunikativ savodxonligi, gózallik va nofosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan soglom bólish, milliy urf- odatlarni öziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi.

Boshlanğich sinf oquvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

- 1- Oqish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- 2- Oquvchining oqishga bølgan ishtiyoqini oshirib borish;
- 3- Ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
- 4- Oquvchi tashbbusi va majburiyatini qóllab- quvvatlash;
- 5- Amaliyot orqali òrganish;
- 6- Ikki tomonlama fikr- mulohazalar almashinuvini tashkil qilish;
- 7- Oqish jarayonini tögrı yølga qoyish;
- 8- Oquv jarayonini baholash.



Öquvchilarni tanqidiy fikrlashga òrgatish uchun dastlab ularning tanqidiy fikrlash darajasini òrganish zarur.Buning uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhin ahamiyatli kasb etadi.Kuzatish metodi kichik maktab yoshidagi öquvchilarning dunyoqarashi,aqliy rivojlanishi,fikr yuritish dinamikasi,xulosalar chiqarishdagi mustaqil fikr bayon qilishi,faol nuqtai nazarini òrganish va tahlil qilishga yordam beradi.

Boshlanǵich sinflarda matematika òqitishda òquvchining mantiqiy fikrini òstirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Matematik bilimlarni bolalar aniq tushunish uchun moslashtirilgan narsalarni òzaro boqliqlikda,biridan – ikkinchisini hosil qilish tartibida keltirib chiqaradi.

Òqitishning birinchi qadamidayoq, ya’ni birinchi ònlikni òqitishda òquvchilar kòrgazmali quroloymada predmetlar tòplamini ularni tuzgan elementlarga ajratib tahlil qiladi va kòrgazma asosida elementlar sintez qilib tòplam hosil qiladi.

Shu bilan birga matematikaga oid tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin bolgan savollar keltirib otiladi:

- 1-dunyoni yanada yaxshilash uchun matematikadan qanday foydalanishimiz mumkin?
  - 2- matematika jamiyatimizga qanday foyda keltiradi?
  - 3- Qachon va qanday qilib matematika butun dunyo tarixida muhim rol oynagan?

Boshlang'ich sinf òquvchilarining hotirasini, mantiqiy tafakkurini, zehnini va asosan tanqidiy fikrlashini oshirishda matematika fanining örnii be'qiyosdir. Buning isboti sifatida mashhur allomalarimizdan biri Qori Niyoziyning "Matematika fanlar ichra shoh, uning sirlaridan bolinggiz ogoh!" degan jumlesi bejiz keltirilmagan.

Darhaqiqat, matematika fanini bilgan inson qolgan barcha fanlarni osonlikcha özlashtira oladi.

Yoki bòlmasam taniqli rus yozuvchisi Chaykovskiyning matematika faniga oid fikri quyidagicha:" Agar matematika gózal bòlmaganda edi ehtimol matematikaning özi ham mavjud bòlmasdi.Aks holda qanday kuch insoniyatning buyuk daholarini bu qiyin fanga torta olardi".

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda boshlanğıch sinf öquvchilarining har tomonlama yetuk va salohiyatlı bəlib yetishishiga yordam beruvchi tanqidiy fikrlashga doir qöllanmalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birgə biz odatlanıb qolgan taxmin qılısh va fikrlash doirasidan chekingan holda yuqoridagi kabi yangicha fikrlashga undovchi savolla ishlab chiqilmoqda. Tanqidiy fikrlashni rivojlantırış yolda ushbu savollardan foydalanamiz: ular dunyoqarashni kengaytirish va borlıqqa boshqa tomondan qarashimizga kömək berdi. Shuningdek bu turdagı savollar bizni tasavvurimizni kengaytirish va berilgan savollarga yanada yaxshiroq yondashib javob berishga undaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.R. Djuraqulov, S. Akbarov, T. Sh. Toshpolatov “ Matematika”, Toshkent, 2020
  2. Jo’raqulov, R, Toshpo’latov,D. S(2021). Matematika fanini o’qitishda ajdodlar merosi.
  3. Hikmatlar.uz(internet tarmog’i)
  4. Sinaps.uz(internet tarmog’i).